

XUROSONDA XI-XII-ASRLARDA IJTIMOYIY-TARIXIY, FALSAFIY- MA'RIFIY JARAYONLAR VA UNING UMAR XAYYOM DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

Rustamova Parizoda Bahrom qizi

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1 - kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Izzetova E.M.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XI–XII asrlardagi Xurosonning ijtimoiy-tarixiy va falsafiy muhiti tahlil qilinadi. Mazkur davrdagi siyosiy jarayonlarning Xuroson taraqqiyotiga ta'siri ochib berilib, ularning Umar Xayyom ijodi va dunyoqarashida tutgan o'rni o'rganiladi. Shuningdek, mutafakkirning hayot yo'li qisqacha yoritilib, uning ilmiy asarlari hamda ruboiylari haqida ma'lumot beriladi.

Maqolada Xayyom she'riyati bilan o'sha davr Xuroson jamiyatining ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi, shoir ijodida borliq, haqiqat va inson masalalarining falsafiy ahamiyati ochib beriladi. Tarix shuni korsatadiki, Umar Xayyom ijodi oradan deyarli ming yil o'tgan bo'lsa-da, bugungi zamon falsafiy gumanizmida o'ziga xos o'ringa ega. Globallashuv va turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda uning inson va hayot mazmuni haqidagi qarashlari nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Xuroson, astronomiya, "Jaloliya", haqiqat, inson baxti, ekzistensial dunyoqarash, may, jom, "sharq uyg'onish davri",

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется социально-историческая и философская среда Хорасана XI–XII веков. Раскрывается влияние политических процессов этого периода на развитие региона, а также их отражение в творчестве и мировоззрении Умар Хайям. Кроме того, кратко освещается жизненный путь мыслителя, даётся обзор его научных трудов и рубаи.

В статье рассматривается взаимосвязь поэзии Хайяма с духовной атмосферой общества Хорасана того времени, анализируется философское значение проблем бытия, истины и человека в его творчестве. Подчёркивается, что, несмотря на почти тысячелетнюю давность, наследие Умара Хайяма занимает особое место в современном философском гуманизме. В условиях глобализации и нарастающих противоречий его взгляды на человека

и смысл жизни остаются актуальными не только для Узбекистана, но и для всего человечества.

Ключевые слова: *Хорасан, астрономия, «Джалалия», истина, человеческое счастье, экзистенциальное мировоззрение, вино, чаша, «Восточное Возрождение».*

ABSTRACT

This article analyzes the socio-historical and philosophical environment of Khorasan in the 11th–12th centuries. It examines the influence of the political processes of that period on the development of the region and explores their role in shaping the творчество and worldview of Omar Khayyam. The thinker's life is briefly outlined, and information is provided about his scientific works and rubaiyat.

The article also studies the connection between Khayyam's poetry and the spiritual atmosphere of Khorasan society of that time, revealing the philosophical significance of the themes of existence, truth, and the human being in his творчество. It is emphasized that although nearly a thousand years have passed, Omar Khayyam's legacy still holds a special place in modern philosophical humanism. In the context of increasing globalization and growing global tensions, his views on humanity and the meaning of life remain relevant not only for Uzbekistan but for all humankind.

Key words: *Khorasan, astronomy, “Jalaliyya”, truth, human happiness, existential worldview, wine, cup (goblet), “Eastern Renaissance”.*

KIRISH

Xuroson hududi qadimdan o‘zining falsafa, adabiyot, astranomiya, matematika va tabiiy fanlardagi xilma-xil qarashlari bilan ajralib turadi. IX-asrda boshlangan “sharq uyg‘onish davri” olimlarining ilmiy qarashlari XI-XII asrlarda Xuroson hududida Umar Xayyom, Nizomulmulk, Abu’l-Maoliy, al-Juvayniy, Bayhaqiy kabi olimlarning yetishib chiqishiga muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Darhaqiqat, Xuroson olimlar va shoirlar o‘lkasiga aylanib borayotgan edi. Masalan, tarixchi Davlatshoh manbalarda G‘aznaviylar sulolasi davrida saroyning o‘zida 400 dan ortiq shoirlar xizmat qilganini yozib qoldirgan [1,121]. Biroq ilm-fan va madaniyatning rivoji taxt uchun kurashlarni to‘xtatib qololmadi, hokimiyat uchun kurashlar davom eayotgan bu davrda Saljuqiylarning taxtga kelishi tashqi tarafdin siyosiy jarayonlarni tartibga solgandek tuyulsada, ichki tarafdin xalq orasida bo‘linishlar va ichki ziddiyatlarni kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bir tarafdin sulolalar taxt uchun kurashyotgan bo‘lsalar, ikkinchi tarafdin islom dinidagi suniy va shia oqimlarining o‘zaro kelishmovchiliklari nafaqat oddiy xalqni balki yuqori qatlam vakillarining ham

ertangi kunga bo'lgan ishonchini so'ndirib borayotgan edi [2,83]. Xuroson diyoridagi bunday ijtimoiy, siyosiy kayfiyat ulug' mutafakkir fors matematigi va astronomi, qolaversa o'zining ruboiylari bilan butun dunyoga tanilgan olim Umar Xayyom ijodida o'zining yaqqol ifodasini topdi.

Umrining ko'p qismini xon saroyida o'tkazgan Umar Xayyom o'z ilmiy qarashari va ruboiylarida yashab turgan ijtimoiy-ruhiy vaziyatni aks ettirdi. U ko'p yillar Xurosonda rasadxonaga boshchilik qildi. Matematika, astronomiya, geometriya va borliq falsafasiga oid asarlar yozdi. Ushbu maqolaning maqsadi XI-XI-asrlardagi Xurosondagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy vaziyatni o'rganish va bu jarayonlarning Umar Xayyom dunyoqarashi, ijodiy faoliyati va hayot yo'liga ta'sirini yoritib berishdan iborat. Maqola davomida, Umar Xayyom biografik ma'lumotlari, asarlari, g'oyalari va uning keyingi avlodlarga qoldirgan merosi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA USULLAR

Ushbu tatqiqot tarixiy-biografik, qiyosiy-tahliliy va dialektik metodlarga asoslangan. Maqolani tayyorlashda o'zbek, rus va xorijiy manbalardagi ma'lumotlar atroflicha. Tarixiy kontrastni hisobga olgan holda Xurosonning XI-XII-asrlardagi ijtimoiy-tarixiy hayot tarzi tatqiq etildi. Umar Xayyomning hayoti va ijodi tahlil qilindi.

O'rta asrlardagi Xuroson va Umar Xayyom haqidagi ilmiy adabiyotlar juda keng va xilma-xildir. O'zbek marifatparvari Fitrat o'lkamizda birinchilardan bo'lib Umar Xayyom shaxsiyatini o'rgangan, u o'z maqolasida Umar Xayyom haqida dastlab noto'g'ri fikrda bo'lganligi va keyinchalik uni o'rganish natijasida qarashlari butunlay o'zgarganligi haqida yozadi [3,5]. Hind sharqshunos olimi Svami Govinda Tirtha Umar Xayyomni "Xuroson imomi o'z davrining eng bilimdon insoni bo'lib yunon ilimlarini o'z o'quvchilariga o'rgatgan ulug' ustoz" [4,56] deya ta'riflab nafaqat mutafakkirning dunyoviy ilmi balki diniy ilmi ham yuksak bo'lganiga ishora qiladi. Shuningdek u Umar Xayyomning hayot yo'lini chuqur tahlil qilishga urunib Xayyomning yashagan yillarini ham aniq hisoblashga erishgan.

Umar Xayyomning haqiqiy tarixiy obrazini topishda eronlik siyosatchi va olim Ali Dashtining izlanishlari muhim o'ringa egadir. U Xayyom ruboiylarining soxta yoki haqiqiy ekanligini tekshirishda katta hizmat qildi va ularni tanqidiy tahlil qildi. U "Umar Xayyomning butun dunyoga astrnom yoki matematik emas balki shoir b'lib tanilishi taqdir emas tasodif" deb ta'riflab, uni shunchaki o'z fikrini ochiq ayтивuvchi shoir" deb ataydi [5,17]. Garchi mutafakkirning falsafiy qarashlarini o'rganmagan bo'lsada A.Boris, F.Wopcke, Rosenfald kabi olimlar Xayyomning matematik va astronomik qarashlarini mukammal o'rganib uning asarlarini ingliz, faransuz tillariga tarjima qiladilar. Umar Xayyomning to'rtliklari sovet olimlari tomonidan ham tahlil

qilingan. Tarjimon Shaxverdova mutafakkirning to'rtliklarini tarjima qilib "Biz shoir Umar Xayyom tarjimai holini olim Umar Xayyom tarjimai holidan ko'ra yaxshiroq bilamiz" deb yozadi [6,5].

Maqolada ilmiy maqsadga erishish va belgilangan vazifalsarni bajarish uchun quydagi usullardan foydalanildi: tahlil – sintez, tafsifiy, tarixiy – madaniy, fanlararo yondashuv.

NATIJAR VA MUHOKAMA

IX-asrda, ma'rifatparvar hukmdorlar tomonidan boshlangan yunon, rum, hind manbalarini tarjima qildirish XI-XII-asrlarda Xurosonda ham, sulolalar tomonidan davom ettirilib tom ma'noda yangi bilimlarning ochilishi va rivojlanishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi. Ammo boshqa hududlardan farqli o'laroq Sharqdagi, xususan Xuroson va Movounnaxrdagi ilm-fan ravnaqi turli millatlar, madanyatlar va ananalar sintezi asosida rivojlanayotgan edi. Ilm-fan va tafakkurdagi bunday bag'rikenglik olimlarni matematika, astronomiya, tibbiyot, geometriya, falsafa va adabiyot fanlarini misli ko'rilmagan shaklda o'rganishga undadi. Bu jarayon nafaqat klassik bilimlarni saqlab qoldi balki yangi va original tatqiqotlarning ham shakllanishiga sabab bo'ldi [6,217]. Jumladan, garchi Movounnaxrda tug'ilgan bo'lsada o'z faoliyatini Xurosonda davom ettirgan olimlar: Ibn Sino tibda ilmiy usulni ishlab chiqdi, Abu Rayhon Beruniy qiyosiy madanyatlar va Yer o'lchovini o'rgandi.

Bu davrda ilmiy sohalar bilan birgalikda adabiyot ham yangi bosqichga ko'tarildi. Firdavsiyning Shohnoma asari o'zining qahramonlik janglari va axloqi bilan yodda qolgan bo'lsa, Rudakiy shariyati fors misralarining chuqur ma'nodorligi va hissiyligi bilan ajralib turdi [6,218]. Biroq, vaqt o'tgani sayin Xurosondagi siyosiy vaziyat o'zgarib bordi, XI-XII-asrlarda Xuroson siyosiy jihatdan nisbatan beqaror mintaqalardan biri bo'lib, u yerda hokimiyat tez-tez almashib turar, Somoniyalar davrida o'rnatilgan nisbiy barqarorlik keyinchalik G'aznaviylar va Saljuqiylar hukmronligi davrida turli harbiy yurishlar, ichki nizolar va markaziy hokimiyatning kuchayishi bilan almashdi. Xurosonda rasmiy ravishda diniy aqidalar hukmron bo'lib, diniy ulamolarning siyosiy ta'siri kuchli edi. Falsafiy tafakkur va erkin fikrlash ko'pincha shubha ostiga olinib, ratsional yondashuv diniy aqidalarga zid deb baholangan holatlar ham uchrab turardi [2,84]. Shu sababli ko'plab mutafakkirlar o'z qarashlarini ochiq shaklda emas balki ramziy va bilvosita ifodalashga majbur bo'lganlar. Shu bilan birgalikda Xuroson o'zining murakkab siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlariga qaramay ilm-fan va madaniyat markazi sifatidagi mavqeyini ham saqlab qoldi. Nishopur, Marf va Balx kabi shaharlarda kutubxonalar, madrasalar tolibi ilmlarga hizmat ko'rsatishda davom etdi.

Bunday ziddiyatli vaziyat Xurosonda yetishib chiqqan olimlarning dunyoqarashiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shunday tarixiy-siyosiy, ma'naviy muhitda shakllangan shaxslar orasida Umar Xayyom alohida ajralib turadi. Uning hayoti va ijodi Xurosonning ilmiy yuksalishi, beqaror siyosati va ichki ziddiyatlari bilan chanbarchas bog'liq bo'lib, bu holat keyinchalik uning ruboiylarida aks etgan ekzistensial kayfiyatning shakllanishiga zamin yaratdi.

Abu'l-Fath Umar ibn Ibrohim Xayyom 1048- yilda madaniy markazlardan biri bo'lgan Nishopurda tug'ildi. Otasi Ibrohim chodir tikuvchi bo'lganligi uchun o'ziga Xayyom tahallusini oldi [9,30]. Barcha musulmon olimlari kabi madrasada ta'lim oldi va astronomiya, matematika, falsafa, tarix, Qur'onshunoslik, fiqh, tibbiyot, filologiya kabi fanlarni chuqur egalladi. Xayyom yoshligidanoq olim sifatida shuhrat qozondi. va 26 yoshida Saljuqiylar imperyasining poytaxti Isfahonga, Sulton Malik Shoh saroyiga rasadxona rahbari lavozimiga taklif qilindi [7,5]. Xayyom yosh bo'lishiga qaramay barcha sohalarda o'z fikriga ega olim edi. Uning matematikadagi yutuqlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. U tarixda birinchi bo'lib barcha 25 turdagi tenglamalarni klassifikatsiya qilgan va kubik tenglamalarni yechish nazaryasini ishlab chiqqan, hozirgi kunda "Nyuton binomi" deb ataladigan formulani yaratdi [8,115].

Umar Xayyom astronomiya fanini ham mukammal egallagan edi. Uning bu sohada qilgan eng buyuk ishi "Jaloliya" taqvimini yaratishi bo'lgan. Bu taqvim hozirgi kunda amalda foydalaniladigan Grigoryan taqvimidan ham aniqroq edi. Manbalarda aytilishicha Jaloliya taqvimi quyosh harakatiga asoslangan bo'lib, har 5000 yilda bir kun xatoga, Grigoryan taqvimi esa har 3300 yilda bir kunlik xatoga ega ekan [11,4]. Xayyom astronomiya va matematikani bir-biriga bog'lab o'rgandi va osmon jismlarining harakatini aniq formulalar bilan ifodalashga harakat qildi. Zero Xayyom uchun bu ilmlar shunchaki fan emas balki borliqni anglash vositasi ham edi. Shu sababli biz uning ilmiy asarlarida ham, ruboiylarida ham borliqni asosiy muammolardan biri sifatida ko'ramiz. U borliq falsafasiga oid ko'plab asarlar yozdi. Xususan "Risola fi'l-vujud va'l-taklif", (Borliq va majburiyat haqida risola), "Risola fi'l-kavn va't- taklif", (Borliq va zarurat haqida risola), "Javob li talatha masa'il", (Uch savolga javob) asarlari nafaqat sharqdagi ilmlar rivojiga balki g'arb astronomiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi [9,37].

Xayyom o'zining borliq haqidagi falsafasida qadimgi yunon faylasufi Aristotel falsafasini o'rgangan va davom ettirgan olim Abu Ali Ibn Sinoning qarashlariga tayanadi. Xayyom o'zining risolalarida ustozining "Ash-shifo" asarida bayon etilgan borliqning ikkiga bo'linish modelini takrorlaydi [11,4].

Xudoning mavjudligini inkor etmaydi, balki tabiatning ham o'z qonunyatlariga muvofiq tadrijiy rivojlanishi mumkinligini tasdiqlaydi. Xayyomning Xudoni oliy maqomga qo'yishi uning imkoniyatlarini cheklash bilan birgalikda ko'rinadi, ya'ni oliy zot borliqni yaratdi va uni rivojlantirish va boshqarishni insonlarga havola qildi. Bayhaqiy o'zining asarida hikoya qilishicha Umar Xayyom umrining so'ngi damlarida shom namozini o'qib turib shunday deydi: Allohim sen bilasanki, men seni bor kuchim bilan bilishga harakat qilganman. Chunki seni bilishim senga yaqinlashishim vositasi edi [9,36].

Xayyomning hayot va ijod yillari G'aznaviylar sulolasining inqirozi va saljuqiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelish davriga to'g'ri keldi, natijada olimning hayoti turli-tuman past-balandliklar va qiyinchiliklarga to'la kechdi. Bunday vaziyatda nafaqat siyosatchilar va ziyolilar balki oddiy xalq ham o'zining mavhum kelajagidan xavotirga tushgan edi. Bunday kayfiyat Xayyom ijodida yaqqol ko'rinib turadi. U insonlarni bugungi kundan zavq olishga kelajak va ohirat tushunchalarini bir chetga surib bugungi kun bilan yashashga chaqiradi. Garchi uning falsafaga oid ko'plab nasriy asarlari bo'lsada olimlar Xayyomning asosiy falsafiy qarashlarini uning she'riyati bilan bog'laydilar. Ajablanarlisi shundaki, Umar Xayyom to'rtliklarini alohida kitob sifatida jamlamagan va faqatgina o'zi ishongan yaqin do'stlari bilan yozishmalarda qo'llagan yoki o'zining ilmiy asarlari yozilgan daftar xoshiyasiga bitgan [11,6]. U ruboiylarida o'zini yani insonni markaziy o'ringa qo'yadi. Uning fikrlari bilan hisoblashadi va unga savollar beradi. Shuning uchun ham biz Xayyom ijodida bir biriga qarama qarshi fikrlarni ko'p uchratamiz. To'rtliklaridagi ziddiyatli fikrlar go'yoki o'quvchiga uning yashab turgan o'zgaruvchan muhiti va davridan so'zlab berayotganday tuyuladi.

V. A. Jukovskiy Xayyom va uning murakkab shaxsiyati haqida shunday yozadi: "U erkin fikrlovchi, e'tiqodni buzuvchi; u ateist va materyalist; u tasavvufni masxara qiluvchi panteist; u haqiqiy musulmon, faylasuf, zehni o'tkir kuzatuvchi, yetuk olim; u quvnoq, ozod va mutaasib ikkiyuzlamachidir" [10,325]. Darhaqiqat, Xayyom ziddiyatli shaxs edi, barcha insonlar kabi unda ham fikrlarning tez-tez o'zgarishi va tartibsizlik yaqqol ko'rinib turardi. Xayyomning asarlarida biz borliqqa va haqiqatga bo'lgan qiziqishni ko'rsakda aslida uning falsafasi markazida inson turadi. Shoirning asosiy g'oyasi – inson qadr-qimmatini yuksaltirish, har bir insonning hayot quvonchiga ega bo'lish huquqini tasdiqlash edi. Biz uning bunday dunyoqarashini quydagi ruboiysi orqali ham naglashimiz mumkin bo'ladi;

“Dunyoning tilagi samari ham biz
Aql ko'zin qorasi – javhari ham biz,
To'garak jahonni uzuk deb olsak

Shaksiz uning ko‘zi – gavhari ham biz.”[11,124,].

Uning shu kabi fikrlari Xayyomni o‘tmishning eng buyuk gumanistlaridan biri sifatida tariflashga asos bo‘ladi.

XULOSA

XI-XII-asarlarda Xurosonda hukmdor sulolalar bilan birgalikda islom dinining mavqeyi juda baland bo‘lgan. Bu esa mavjud vaziyatni oddiy xalq uchun yana ham qiyinlashtirdi. Zero siyosatdagi qarama-qarshiliklar islom oqimlarining orasida ham ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Shialar va sunniylar orasidagi kurashdan tashqari xurosonda so‘fiylik bayrog‘i ostida, ortodoksal islomga qarshi chiqishlar, ismoilizm shunchakli targ‘ib qilinibgina qolmay, qurol kuchi bilan singdirishga urinishlar ham kuzatilgan. Bir tarafdin hukmdor tabaqalarning tez-tez almashinuvi boshqa tarafdin esa diniy kurashlarga guvoh bo‘lgan Umar Xayyomning ijodida biz may, oshiqlik, jom kabi tushunchalarni ilohiyona emas balki real ma‘noga ega ekanligini ko‘ramiz.

Xayyom mistik va mavhum lazzatdan ko‘ra bu dunyoning ne‘matlaridan bahra olishni afzal deb bilgan. Bundan korinib turadiki, nafaqat Umar Xayyom balki o‘sha davr insonlarining aksariyati hayotning qisqa ekanligini va uni qaytarib berilmasligini anglaganlar. Xayyom hayot in‘om etgan ne‘matlardan to‘liq foydalanmaslikni isrofgarchilik deb biladi. Uning fikricha bu dunyoda barcha narsalar inson uchun yaratilgan. Uning ruboiylarida, inson va uning taqdiri muqaddas ekanligi, garchi odamzot tabiatning bir bo‘lagi hisoblansada shu bilan birgalikda muhim bir qismi ekanligi haqida so‘z boradi. Xayyomni o‘qigan inson o‘zini va yashab turgan hayotini sevishni o‘rganadi kichik narsalardan ham zavq olish mumkinligini, barcha zamonlarning faylasuflari qidiruvchi haqiqat va baxt tushunchalari aslida insonga juda yaqin ekanligini anglatib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Bosworth C.E. The Ghaznavids: The Empire in Afghanistan and Eastern Iran
2. 994-1040 (Beirut: Libraire du Liban, 1973. – 331p.
3. Shomammedov Sh. Fors-tojik adabiyotlari klassiklari. – Toshkent, 1953.–197 b.
4. Abdurauf Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom: risola. – Toshkent, 1968. – 30 b.
5. Swami Govinda Tirtha. The Nectare of the grace: Omar Xayyam’s Life and Works. – Kitabistan: Allahabad, 1941. – Pp. 56-57.
6. Dashti A. In search of Omar Khayyam // London: Allen & Unwin 2011. – 278p.

7. Eshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi, Baxtiyarova Dilrabo Hikmatillo qizi. The Great Scholars of IX–XII Centuries in Movarounnahr and Khorasan // Образование наука и инновационные идеи в мире, 2025, №93(1). – Сс. 217–222.
8. Омар Хайям. Лучшие афоризмы – М.: Издательство АСТ, 2022.— 192 с.
9. Исмуков Н.А. Экзистенциальная поэзия О Хаяма: Опровержение времени // Вестник Российского университета кооперации, 2011, №6. – С.115-120
10. Boyle J.A. Omar Kхаууам:Astronomer,Mathematician and Poet//London:persian studies of Manchester university,1968. – Pp.35-45.
11. Жуковский В. А. Омар Хайям и "странствующие" четверостишия// "Музаффарийа"/ Сборник статей учеников профессора барона Виктора Романовича Розена. - Спб., 1897.- С. 325-363.
12. Shomuhammedov Sh. Umar Хаууом:Ruboiylar. – Toshkent, 1981. – 128b.